



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



Google Scholar  zenodo  Open AIRE



+998335668868

<https://innoworld.net>

2026



«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI

«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2026-YIL № 5-SONLI ILMIY,
MASOFAVIY, ONLAYN KONFERENSIYASI

ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net
O'ZBEKISTON-2026



NAMANGAN SHAHRIDA YOSH BOLALARNING O'RVIDAN KEYINGI TRAXEOBRONXIT KASALLIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Samijanova Gulsanam

NamDU Tibbiyot fakulteti 5-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Sobirov Qobuljon**

NamDU Tibbiyot fakulteti o'qituvchisi.

Dolzarbliqi. Ushbu maqolada traxeobronxitning kelib chiqish sabablari, patogenez mexanizmlari, klinik kechish xususiyatlari, zamonaviy diagnostika usullari va davolash tamoyillari keng yoritilgan. Nafas yo'llari kasalliklari ichida muhim o'rin tutuvchi ushbu patologiya turli yosh guruhlarida uchrab, ayniqsa immunitet pasaygan shaxslarda og'ir kechishi mumkin. Nafas olish tizimining yuqumli kasalliklari bolalar populyatsiyasi orasida keng tarqalgan va umumiy kasallanishlarning katta qismini tashkil etadi. Bolalarda nafas olish kasalliklarining keng tarqalgan shakllaridan biri traxeobronxit hisoblanadi. Bu kasallik traxeya va bronxlarning qo'shma yallig'lanishi bo'lib, mavsumiylikka ega: kuz-qish fasllarida avj oladi, bu bolalar guruhlarida o'tkir respirator virusli infeksiyalarning tarqalishi bilan bog'liq. 90% hollarda bolalarda traxeobronxitning rivojlanishi virusli infeksiyadan kelib chiqadi, bunday hollarda kasallik o'tkir respirator virusli infeksiyalar (O'RVI)ning klassik asorati sifatida yuzaga keladi. Traxeobronxit rivojlanishiga yordam beradigan xavf omillari orasida bakterial infeksiyalar, allergenlar, xavoni ifloslantiruvchi moddalar juda kam qismni tashkil etsada (10%inigina) yetarlikcha klinik ahamiyatga ega bo'ladi.

Asosiy qism. Traxeobronxit — traxeya va bronxlar shilliq qavatining yallig'lanishi bilan xarakterlanadigan kasallik bo'lib, u yuqori va pastki nafas yo'llari patologiyalari o'rtasida oraliq holatni egallaydi. Kasallik ko'pincha o'tkir respirator virusli infeksiyalar (ORVI) fonida rivojlanadi va noto'g'ri davolash holatlarida surunkali shaklga o'tishi mumkin. Epidemiologik jihatdan traxeobronxit sovuq iqlim sharoitida va mavsumiy kasalliklar davrida ko'proq uchraydi.

Etiologiya va xavf omillari. Traxeobronxit polietilogik kasallik bo'lib, quyidagi omillar asosiy rol o'ynaydi:

Infeksion omillar:

Viruslar (gripp, paragripp, rinovirus, adenovirus)

Bakteriyalar (Streptococcus pneumoniae, Staphylococcus aureus, Haemophilus influenzae)

Aralash infeksiya (virus-bakterial)

Noinfeksion omillar:

Sovuq va nam havo

Atmosfera ifloslanishi

Ishlab chiqarish changlari va gazlar

Allergik reaksiyalar

Chekish (aktiv va passiv)

Xavf guruhlari:

Bolalar va keksalar

Immuniteti pasaygan bemorlar
Surunkali kasalliklari bor shaxslar
Patogenez:

Traxeobronxit rivojlanishida mukosiliar tizimning buzilishi asosiy o'rin tutadi. Infekcion agentlar traxeya va bronx epiteliysiga yopishib, yallig'lanish mediatorlarini ajratadi. Bu esa quyidagi o'zgarishlarga olib keladi:

Shilliq qavat giperemiyasi va shishi
Goblet hujayralar faoliyatining kuchayishi
Balg'am ishlab chiqarilishining ortishi
Bronx lümenining torayishi
Natijada gaz almashinuvi buziladi, yo'tal refleksi kuchayadi va nafas olish qiyinlashadi.

Klinik kechishi:
O'tkir traxeobronxit:
Quruq, keyinchalik nam yo'tal
Balg'am ajralishi
Ko'krak qafasida og'riq
Subfebril yoki febril isitma
Umumiy intoksikatsiya belgilari
Surunkali traxeobronxit:
Uzoq davom etuvchi yo'tal (3 oy va undan ortiq)
Ertalab balg'am ajralishi
Nafas qisilishi
Periodik kuchayishlar

Kalit so'zlar: kasallik, O'RVI, traxeobronxit, mavsumiylik, klassik asorat, qo'shma yallig'lanish, nafas olish organlari.

Tadqiqot maqsadi- O'RVIDan keyingi traxeobronxit bilan og'rigan bolalarda kasallik klinik kechishining o'ziga xos xususiyatlari.

Materiallar va tadqiqot usullari. Tadqiqot ob'ekti: Namangan shahrida yashovchi shahar bolalar shifoxonasida 2026 yilning yanvar-fevral oylarida statsionar davolanagan 1 yoshdan 9 yoshgacha bo'lgan o'tkir respirator virusli infeksiya, traxeobronxit tashxisi bilan og'rigan bolalar. Tadqiqot usullari – auskultativ, klinik-laborator.

Natijalar. 1 yoshdan 9 yoshgacha bo'lgan jami 73 nafar o'tkir respirator virusli infeksiya, traxeobronxit bilan og'rigan bolalar kuzatilgan. Ularning 48%i (35 nafar)da kasallikning yengil kechishi, 45,2% foizi (33 nafar)da kasallikning o'rta og'ir kechishi, 6,8% (5 nafar)ida og'ir kechish kuzatilgan. Kasallik yengil kechgan 35 nafar bemor statsionar muolajaga muhtoj emas deb topilib, ambulator davolanish maqsadida yuborilgan. Statsionar davolanagan 38 nafar bemorning 20 nafarini o'g'il bolalar (52,6%), 18 nafarini qiz bolalar (47,4%) tashkil etdi. Bemorlarning yosh bo'yicha guruhlarga: kichik guruh - 3 yoshgacha, o'rta guruh 3 yoshdan 5 yoshgacha va katta guruh 5 yoshdan yuqori bemorlarga ajratib o'rganildi.

Xulosa. Nafas olish organlari ta'sirlanganda immunitetning buzilishi



immunitet tizimining hujayrali va gumoral bo'g'inlariga ta'sir qiladi, bu qondagi T, B-limfotsitlar, tabiiy qotillar miqdorining pasayishi, immunitet tanqisligining gipersupressor variantining rivojlanishi, monotsitlarning fagotsitar faolligini inhibe qilish va qondagi neytropiklar tarkibini oshirishi bilan tavsiflanadi Ig M va A ning qondagi immuniteti buzilishining og'irligi traxeobronxit va og'irligiga, shuningdek, kasal bolalarning yoshiga bog'liq. Immunitetning buzilishi pnevmoniyaning o'tkir davrida, og'ir holatlarda, shuningdek, yosh bolalarda sodir bo'ladi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Vohidova A. M., Murodova E. V., Xudoyarova G. N. Cho'chqalardagi eksperimental echinokokkoz // 21-asrda yoshlar va tibbiyot fanlari. – 2019. – B. 165-166.
2. Xudayarova G.N. va boshqalar, echinokokkoz va bronxial astma bilan og'riqan bemorlarning immunologik holatini o'rganish va immunoreabilitatsiya // Fan va ta'limni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. – 2019. – B. 241-244.
3. Achilov O. va boshqalar veterinariya kasalliklari bo'lgan hayvonlarda echinokokkoz - sanitariya ekspertizasi // agrobioteksnologiya va veterinariya ilmiy jurnali. – 2022. – b. 70-73.
4. Xudjanova M. A., Vohidova A. M. Surunkali ovqatlanish buzilishi fonida qo'zillardagi ba'zi makro va mikroelementlarning holati. //Agrobioteksnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali. – 2022. – b. 484-486.
5. Vohidova A., Xudoyarova G., Muratova Z. Bakterial infeksiya bilan asoratlangan echinokokkozli bemorlarni immunokorrektiv davolash. //Tibbiyot fanlari va klinik tadqiqotlar xalqaro byulleteni. – 2022. – T.

